

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 10 | pp. 17-23 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

AKSIYADORLIK JAMIYATLARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGINI OSHIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH



Qodirov Iskandar Alisher o'g'li

"International School of Finance Technology and Science"

Menejment kafedrasi assistenti

E-mail: iskandar.qodirov@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqot aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish yo'llarini o'rghanishga bag'ishlangan. Bugungi global iqtisodiyot sharoitida aksiyadorlik jamiyatlari investitsiyalarni jalb qilishda ko'plab muammolarga duch kelmoqda. Ushbu mavzu doirasida aksiyadorlik jamiyatlarining jozibadorligini oshirish uchun korporativ boshqaruvni yaxshilash, moliyaviy ko'rsatkichlarni mustahkamlash, ochiqlik va shaffoflikni oshirish, yuqori malakali boshqaruv kadrlarini jalb qilish, shuningdek, kompaniya strategiyasini uzoq muddatli rivojlanish va barqarorlikka qaratish kabi omillar muhim ahamiyat kasb etishi ta'kidlanadi. Tadqiqotda aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalar, davlatning qonunchilik bazasini rivojlantirish, investorlarga quay sharoitlar yaratish masalalari o'r ganiladi. Shuningdek, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish va korporativ boshqaruvni kuchaytirish orqali investitsion muhiti yaxshilashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi. Mazkur ish aksiyadorlik jamiyatlari uchun investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligini oshirish bo'yicha tahliliy ko'rsatmalar beradi. Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlari uchun zamonaviy investitsiya boshqaruvi va jozibadorlikni oshirish strategiyalari keltirib o'tiladi, bu esa kompaniyalarning o'sishi va rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. Aksiyadorlik jamiyatlari, investitsion jozibadorlik, korporativ boshqaruv, sarmoya jalb qilish, moliyaviy ko'rsatkichlar, investitsiya muhiti, ochiqlik va shaffoflik, davlat qonunchiligi, aksiyadorlar manfaatlarini himoya qilish, xalqaro tajriba, barqaror rivojlanish, boshqaruv strategiyasi

Kirish.

Bugungi kungi dunyoni investitsiyalarsiz to'liq tushunib yetish qiyin. Global miqyosida bozor muhiti hukmron bo'lgan bugungi davrda ukushdorlar, aksiyadorlar, menejerlar, innovatsiya, sun'iy intelekt kabi tushunchalar insoniyatning hayotida allaqachon ajralmas bo'lib kirib bo'lgan. Ayniqsa tadbirkorlik hamda biznes muhitida investitsiya bu har bir faoliyatning asosidir. Amerikalik milliarder Warren Buffett shunday degan edi "Biror narsa uzoq muddatda qiymatini oshiradigan bo'lsa, u qimmat emas". Buffett investitsiyani uzoq muddatli o'sishga asoslangan holda tanlash kerakligini tavsiya qiladi. Xuddi shunga o'xshash minglab balki, millionlab qarashlar mavjud bo'lib, ular o'z tajribalaridan, siyosiy va iqtisodiy muhittdan kelib chiqib faktlar yaratishadi.

Keling dunyoda investitsiya va biznes muhiti yaxshiligi yoki ko'p investitsiyalar bugungi kunda qaysi mintaqalarda ekanligiga bir nazar solsak. CEOWORLD Magazine AQSHdagi yetakchi mamlakatlararo iqtisodiy reytinglar va raqobatbardoshlik indekslarini e'lon qilib boradigan jurnallardan biri bo'lib, unda 2024-yilda investitsiya kiritish va biznes qilish uchun eng yaxshi davlatlar reytingi keltirilgan. Ushbu reytingda hammasi bo'lib 199 ta davlat bo'lib, unga ko'ra 2024-yilda investitsiya kiritish va biznes uchun dunyoning eng yaxshi mamlakati sifatida Singapur e'lon qilindi. Buyuk Britaniya ikkinchi o'rinni egallagan bo'lsa, undan keyin Tayvan (3-o'rinni), Hindiston (4-o'rinni) va Indoneziya (5-o'rinni) joylashgan. Mamlakatimiz esa afsuski 199 ta davlatlar orasida 106-o'rinda qayd etilgan. Bu reytingda mamlakatlar orasidan Singapur eng jozibador sarmoya kiritish joyi sifatida yuqori o'rinda turibdi va xalqaro biznes hamda investorlar uchun o'zining eng yaxshi pozitsiyasini mustahkamlab kelmoqda. Ushbu yuqoridagi ma'lumotlarning o'ziga mamlakatimizda investitsiya muhitini yanada isloh qilish, bu borada muammolarga yechim topishga hamda ushbu sohada ilmiy izlanishlar qilishga undaydi kishini.


Mamlakatimizdagagi iqtisodiy munosabatlar tizimining sezilarli o'zgarishi mamlakat hududida tashkil etilayotgan xo'jalik yurituvchi subyektlarning tashkiliy-huquqiy shakllarini tubdan qayta qurishga olib keldi. Bu, o'z navbatida, boshqaruvning barcha funksional jihatlarini takomillashtirish va, eng avvalo, tashkilotlarning xo'jalik faoliyatining muhim ko'rsatkichlarini baholashni rivojlantirish zaruriyatiga ta'sir ko'rsatdi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy o'sishni jondorish va aholining turmush darajasini oshirish uchun qulay sharoitlarni yaratish ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bunda, Respublika hududlarining investitsion salohiyatini oshirish va ushbu jarayonni muvaffaqiyatli olib borishga hududlarning geografik joylashuvi, tabiiy resurslarning mavjudligi, uning zahirasi, mehnat resurslarining soni, yoshi va malakasi, shuningdek, hududlarda bir necha yillardan beri saqlanib kelinayotgan ixtisoslashuv darajasi, infratuzilmalarning holati kabi bir qancha omillarni inobatga olish asosiy shartlaridan hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'grisida"gi Qonuni (2019) va boshqa qonun hujatlari xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va tartibga solishda huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi (O'RQ-598, 2019). Mamlakatimizda ham investitsiya faoliyatini rivojlantirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan "2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'grisida""gi Farmonida (2022) belgilangan 100 ta maqsadlaridan 26-maqsadida "Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish, kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish choralarini ko'rish" belgilab qo'yilgan (PF-60, 2022y). Shuningdek, Respublikada asosiy jalb qilingan investitsiyalar to'g'ridan-to'gri investitsiyalar asosiy o'rinni tashkil qilmoqda. Shu bilan birga, jalb qilingan investitsiyalar davlat kafolati ostida kiritilgan. Keyingi bosqichlarda esa,xar bir aksiyadorlik jamiyaltlari o'zlari tog'ridan-to'g'ri qimmatli qog'ozlar jalb qilish orqali, yani davlat kafolatisiz evroobligatsiyalar orqali investitsiyalar

kiritmoqda. Bunda, ushbu aksiyadorlik jamiyatlarini investitsion jozibadorligini xalqaro reyting agentliklarining faoliyati uchun bergan ijobiy baholari orqali ko`rsata oldi.

Shu o`rinda ayrim xorijiy olimlarning investitsiya va uning jozibasi haqida bayon qilgan fikrlariga ham to`xtalib o`tsak. Moliaviy iqtisodiyot sohasida ishlagan amerikalik iqtisodchi Michael C. Jensen o`zining "Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs and Ownership Structure" (1976) nomli maqolasida korporativ boshqaruv va agentlik xarajatlari nazariyasining asosini qo`ygan. Ushbu tadqiqotda u firma faoliyatidagi agentlik muammolari va agentlik xarajatlarini tahlil qilishgan. Xususan, agentlik nazariyasi, agentlik xarajatlari, firma tuzilmasi va egalarining nazorati, moliaviy tuzilma va qarz hissasi yo`nalishlarini tadqiq etishgan. Bu ish bugungi kunda ham korporativ boshqaruv, agentlik nazariyasi va korporativ moliya sohalarida asosiy nazariyalardan biri hisoblanadi. U aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligi va samaradorligini oshirish uchun qanday boshqaruv tizimlari va rag`batlantirish mexanizmlari zarurligini tushunishga yordam beradi.

2025 yigacha mo`ljallangan Milliy Investitsiya dasturida O`zbekistonning iqtisodiy islohotlariga muvofiq amalga oshirilayotgan va umumiy qiymati 55,4 milliard dollar bo`lgan qariyb 800 loyihani qamrab oladi. Dastur infratuzilma va sanoat rivojlanishini qo`llab-quvvatlash orqali investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan bo`lib, davlat-xususiy hamkorlikni rag`batlantirish va investorlarga kapitalni erkin olib chiqish hamda milliylashtirishdan himoya qilish kabi qonuniy kafolatlar taqdim etadi. Shu o`rinda mamlakatimizdagi ayrim statistikalarga e`tibor ratsak.




1-rasm.O`zbekistondagi Aksiyadorlik Jamiyatlarining asosiy ko`rsatkichlari¹.

1-rasmda ko`rishimiz mumkinki O`zbekistonda 2024-yil oktabr oyi boshida 680 ta aksiyadorlik jamiyat faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, bu ko`rsatkich 2023-yilning shu

¹ <https://uzcsd.uz/>

davriga nisbatan 10 foizga ko'pdir. Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysi ma'lumotlariga qaraganda Aksiyadorlik Jamiyatlari soni sezilarli darajada o'sgan. Shuningdek 2-rasmda ko'rishimiz mumkinki AJlarning 334 tasi xorijiy ulushga ega bo'lib, ularning asosiy qismi – 99,2 foizi xorijiy yuridik shaxslarga, qolgan 0,8 foizi jismoniy shaxslarga tegishli hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlari ustav fondidagi xorijiy ulush tuzilmasi



2-rasm.O'zbekistondagi Aksiyadorlik Jamiyatlarining ulushlar ko'rsatkichlari².

Aksiyadorlik jamiyatlaridan mamlakatga bir nechta muhim foyda bor. Ulardan biri – moliya va kapitalni jalb qilish. Aksiyadorlik jamiyatlari katta miqdordagi mablag'larni aksiyalar chiqarish orqali jalb qiladi. Bu jamiyatlarning davlat iqtisodiyotiga qo'shadigan hissasi yirik korxonalar va loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi. Yirik moliyaviy resurslar mamlakat ichidagi sanoat va ishlab chiqarishni rivojlantiradi. Shuningdek, Aksiyadorlik jamiyatlari ko'p sonli ishchi kuchini jalb qiladi, bu esa davlatda ish bilan ta'minlash darajasini oshiradi. Shu bilan birga, xorijiy investorlar ishtirokida tashkil etilgan qo'shma aksiyadorlik jamiyatlari yangi texnologiyalarni olib kiradi, bu esa ishchilar malakasini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, aksiyadorlik jamiyatlari o'z faoliyati davomida davlatga soliqlar to'laydi. Bu soliqlar davlat budgetini to'ldirishda va davlat xizmatlari, infratuzilma rivojlantirishda foydalaniladi.

Bundan tashqari, xorijiy investorlar aksiyadorlik jamiyatlarida qatnashib, o'z investitsiyalarini olib kelishlari mumkin. Bu mamlakatga xorijiy sarmoya kiritilishi va iqtisodiyotning global bozorga integratsiyalashuviga yordam beradi.

Mamlakatimiz o'tgan yilda aksiyadorlik jamiyatlaridan sezilarli miqdorda foyda ko'rgan. Xususan, qimmatli qog'ozlar chiqarilish hajmi 22,9 trillion so'mga oshgan. Bundan tashqari, davlat aksiyadorlik jamiyatlari orqali soliqlar va dividendlardan ham daromad

² <https://uzcsd.uz/>

olgan. Masalan, "O'zmetkombinat" kabi yirik korxonalar oddiy aksiyalar uchun har bir aksiya bo'yicha 683,35 so'm dividend to'lagan. Bu kabi to'lovlar davlat budgetiga ham sezilarli daromadda hissa qo'shgan. Shuningdek, davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining ustav fondi va aktivlari davlat uchun qo'shimcha daromad manbai bo'lmoqda. Davlat ulushi mavjud aksiyadorlik jamiyatlarining umumiy aktivlari hajmi ham yil davomida ortib borgan, bu davlatning aksiyadorlik jamiyatlari orqali ko'rghan foydasini yanada oshirgan.

Xulosa.

Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish, modern biznes va iqtisodiyotning eng dolzarb masalalaridan biridir. Aksiyadorlik jamiyatlari investorlarga samarali daromad olish imkoniyatini taqdim etishi, shuningdek, kompaniya faoliyatining barqaror va uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashi kerak. Ushbu maqolada aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish uchun zarur bo'lgan asosiy omillar va ularni takomillashtirish yo'llari tahlil qilindi. Birinchidan, korporativ boshqaruvning samaradorligi aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Boshqaruvchilar va aksiyadorlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish, agentlik xarajatlarini kamaytirish va boshqaruvni samarali tashkil etish muhim omillardan biridir. Aksiyadorlarning manfaatlarini himoya qilish uchun boshqaruv tizimining shaffofligini oshirish, qarorlar qabul qilish jarayonlarini ochiq va adolatli qilish zarur.

Ikkinchidan, **moliyaviy ko'rsatkichlarning mustahkamligi** aksiyadorlik jamiyatlarining jozibadorligini oshiradi. Kompaniyaning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, qarz va kapital tuzilmasini muvofiqlashtirish, investorlar uchun qiziqarli va xavfsiz sarmoya variantlarini yaratadi. Moliyaviy shaffoflikni oshirish va ishonchli hisobotlarni taqdim etish, sarmoyadorlarning ishonchini kuchaytiradi va investitsiyalarni jalb qiladi.

Uchinchidan, oqilona investitsiya strategiyalari va uzoq muddatli rivojlanish rejalarini aksiyadorlik jamiyatlarining raqobatbardoshligini oshiradi. Kompaniyaning kelajakdagi o'sish istiqbollarini aniq belgilash, yangi bozorlarni zabit etish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish investorlar uchun qiziqarli bo'ladi. Shu bilan birga, kompaniyaning ijtimoiy mas'uliyati va ekologik barqarorlikka e'tibor qaratilishi ham jamiyatning umumiy jozibadorligini oshiradi.

To'rtinchidan, kadrlar siyosati ham muhim ahamiyatga ega. Yaxshi malakali va yuqori tajribaga ega boshqaruvchilar va kadrlar investitsion jozibadorlikni oshirishda katta rol o'ynaydi. Kadrlarni rivojlantirish, motivatsiya tizimlarini joriy etish va xodimlar orasida yuqori darajadagi samaradorlikni ta'minlash kompaniya muvaffaqiyatini oshiradi.

Yuqorida ta'kidlangan omillar asosida, aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish uchun kuchli korporativ boshqaruv tizimini, shaffof moliyaviy hisobotlarni, innovatsion investitsiya strategiyalarini va malakali kadrlar siyosatini

takomillashtirish zarur. Bu o'zgarishlar kompaniyaning jozibadorligini oshirishi, sarmoyadorlar uchun foydali va xavfsiz sharoitlar yaratishi mumkin. Shuningdek, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan qonunchilik va iqtisodiy muhitni yaratish, aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Mahalliy va xalqaro miqyosda investorlarning ishonchini qozonish, barqaror va samarali iqtisodiy tizimni ta'minlash zarur. Umuman olganda, aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirish nafaqat kompaniyaning moliyaviy holatiga, balki uning uzoq muddatli barqarorligi va ijtimoiy mas'uliyatiga ham bog'liq. Yaratilgan investitsion muhit jamiyatning iqtisodiy o'sishiga, yangi ish o'rinalarini yaratishga va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga yordam beradi. Shuningdek taklif sifatida Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan quyidagi to'rt taklifni kiritish mumkin: *Korporativ boshqaruvni mustahkamlash: Aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish muhim. Boshqaruv va aksiyadorlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvini oldini olish, shaffof qarorlar qabul qilish tizimlarini joriy etish va agentlik xarajatlarini kamaytirish zarur. Bu jamiyatning investitsion jozibadorligini oshirishga yordam beradi.*

Moliyaviy shaffoflikni oshirish va risklarni boshqarish: Aksiyadorlik jamiyatları moliyaviy ko'rsatkichlarini mustahkamlash va moliyaviy shaffoflikni oshirish orqali sarmoyadorlar ishonchini kuchaytirishi kerak. Xalqaro reyting agentliklarining ijobiy baholari, moliyaviy barqarorlik va ishonchli hisobotlar jamiyatga investitsiya jalb qilish imkoniyatini oshiradi. Bundan tashqari, risklarni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish ham muhim ahamiyatga ega. Innovatsion va uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini joriy etish: Aksiyadorlik jamiyatları bozorlarni kengaytirish, yangi texnologiyalarini joriy etish va innovatsion strategiyalarini ishlab chiqish orqali raqobatbardoshligini oshirishi kerak. Uzoq muddatli rivojlanish strategiyalarini yaratish sarmoyadorlarga kompaniyaning o'sish istiqbollarini ko'rsatadi, bu esa investitsiyalarini jalb qilishda yordam beradi. Yuqori malakali kadrlarni jalb qilish va motivatsiya tizimlarini ishlab chiqish: Aksiyadorlik jamiyatlarining investitsion jozibadorligini oshirishda malakali boshqaruvchilarning roli muhim. Yaxshi malakali kadrlarni jalb qilish, ularning rivojlanishiga ko'maklashish va samarali motivatsiya tizimlarini joriy etish kompaniyaning o'sishi va barqarorligini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Jensen, M. C. (1976). *Theory of the Firm: Managerial Behavior, Agency Costs, and Ownership Structure*. Journal of Financial Economics, 3(4), 305–360. [https://doi.org/10.1016/0304-405X\(76\)90026-X](https://doi.org/10.1016/0304-405X(76)90026-X)
2. Shleifer, A., & Vishny, R. W. (1997). *A Survey of Corporate Governance*. The Journal of Finance, 52(2), 737–783. <https://doi.org/10.1111/j.1540-6261.1997.tb04820.x>
3. La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., Shleifer, A., & Vishny, R. W. (1998). *Law and Finance*. Journal of Political Economy, 106(6), 1113–1155. <https://doi.org/10.1086/250042>
4. World Bank. (2020). *World Development Report 2020: Trading for Development in the Age of Global Value Chains*. World Bank Group.

5. Hoskisson, R. E., et al. (2000). *The Effects of Corporate Governance and Restructuring on Firm Performance in Emerging Markets*. Strategic Management Journal, 21(5), 449–461.
6. Fama, E. F., & Jensen, M. C. (1983). *Separation of Ownership and Control*. Journal of Law and Economics, 26(2), 301–325.
7. O'zbekistonda Investitsiyalar va Investitsiya Faoliyati To'g'risidagi Qonun (2019).
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2022). *Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi (2022–2026) to'g'risidagi Farmon*.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

